**TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2025-yil 10-aprel | 96-10-212-Q/25 | Toshkent tuman hokimligi

**Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 28-martdagi “Toshkent tumani hududidagi bo‘sh turgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 226-10-0-Q/25-son qarori ijrosini taminlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 198-son farmoni ijrosi yuzasidan Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 28-martdagi 226-10-0-Q/25-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 10-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 28-martdagi 226-10-0-Q/25-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan “Qodir Agro Biznes” f/x rahbari Turgunov Oybek Rovshan o‘g‘lining 2025-yil 25-martdagi 202501870000938-sonli yer maydonini zaxiraga qaytarish to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan arizasiga asosan, Toshkent tumani xaritasining “Turg‘unboy Sohibkor agro” hududi 740, 741, 742, 743, 744, 745-konturlardagi 5,26 gektar;

“Ibrohim agro biznes” f/x rahbari Mahmudov Mirzahmad Erkinovichning 2025-yil 25-martdagi 202501870000942-sonli yer maydonini zaxiraga qaytarish to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan arizasiga asosan, Toshkent tumani xaritasining “Turg‘unboy Sohibkor agro” hududi 826, 829-konturlardagi 3,46 gektar;

“Zubayra agro” f/x rahbari Djurayeva Mamlakat Abdullayevnaning 2025-yil 25-martdagi 202501870000937-sonli yer maydonini zaxiraga qaytarish to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan arizasiga asosan Toshkent tumani xaritasining “Turg‘unboy

Sohibkor agro” hududi 828-konturlardagi 0,51 gektar, 3 ta yerdan foydalanuvchidan jami 9,23 gektar yer maydoni Toshkent tumani davlat zaxira yerlari tarkibiga qaytarilganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. Toshkent tumani hokimi o‘rinbosari (A.Oqiljonov) qarorda keltirilgan jami 9,23 gektar yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish maqsadida, belgilangan tartibda Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga buyurtma bersin.

4. Davlat kadastrlari palatasi tuman bo‘limi (O.Xoldorov) tuman hokimligining buyurtmasiga asosan, bo‘sh turgan 9,23 gektar yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari A.Oqiljonov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi** **S.Ergashev**